

TALABALARNING SHAXSIY KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Maxramova Nargiza Maxmudovna,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,

Ellikqal'a fakulteti tyutori

E-mail: nargizamaxramova2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirishda motivatsiyaning o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarni har tomonlama rivojlantirish masalalari yoritilgan. Motivatsiya talabaning o'quv faoliyatidagi faolligi, mustaqilligi va kasbiy shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, talabalarda mas'uliyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, kommunikativlik va o'z-o'zini rivojlantirish kabi sifatlarni shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida motivatsiyani oshirish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, shaxsiy kasbiy sifatlar, talaba, ta'lim jarayoni, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiya, o'z-o'zini rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль мотивации в развитии личностно-профессиональных качеств студентов в теоретическом и практическом аспектах. Освещаются вопросы формирования всесторонне развитой личности студента на основе личностно-ориентированного подхода в современном образовательном процессе. Мотивация обоснована как важный фактор, влияющий на активность, самостоятельность и профессиональное становление обучающихся. Также анализируются эффективные педагогические условия формирования таких качеств, как ответственность, целеустремленность, коммуникативность и способность к саморазвитию. В результате исследования сделан вывод о значимости повышения мотивации для развития профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: мотивация, личностно-профессиональные качества, студент, образовательный процесс, личностно-ориентированный подход, компетенции, саморазвитие, педагогические условия.

Abstract. This article examines the role of motivation in the development of students' personal and professional qualities from both theoretical and practical perspectives. It highlights the importance of a student-centered approach in modern education for fostering comprehensive personal development. Motivation is substantiated as a key factor influencing students' academic engagement, independence, and professional formation. The study also explores effective pedagogical conditions for developing such qualities as responsibility, goal orientation, communication skills, and self-development. The findings indicate that enhancing motivation significantly contributes to the development of students' professional competencies.

Keywords: motivation, personal and professional qualities, student, educational process, student-centered approach, competence, self-development, pedagogical conditions.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, kasbiy faoliyatda raqobatbardosh bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, talabalar shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv jarayoni, mehnat bozorida keskin raqobat hamda fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy mutaxassisga nisbatan yangi talablarni

ilgari surmoqda. Endilikda mutaxassis nafaqat o'z sohasini mukammal bilishi, balki o'zini doimiy rivojlantirishga intilishi, mustaqil qaror qabul qila olishi, ijodiy va tanqidiy fikrlashi, jamoada samarali ishlashi zarur. Bunday sifatlarni shakllantirish esa bevosita ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi va unda motivatsion omillarning to'g'ri qo'llanishiga bog'liq.

Motivatsiya shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida talabaning o'qishga bo'lgan munosabatini belgilaydi. U nafaqat bilim olish jarayonini faollashtiradi, balki shaxsning kasbiy shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirishda motivatsiyaning o'rnini o'rganish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirishda motivatsiyaning o'rnini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Jumladan, nazariy va empirik metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Nazariy tahlil bosqichida pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar, motivatsiya nazariyalari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga oid manbalar o'rganildi va umumlashtirildi. Bu orqali motivatsiya va shaxsiy kasbiy sifatlar o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirish va motivatsiya muammosi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi sifatida raqobatbardosh va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish belgilangan.

X. V. Hamidov motivatsiyani o'quv faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi, B. I. Qodirov va V. V. Maksimova esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va tyutorlik orqali talaba rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni asoslaydi. A. Maslou nazariyasida motivatsiya inson ehtiyojlari bilan bog'liq holda izohlanadi va shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi.

Talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlari deganda, ularning kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta'minlovchi psixologik, ijtimoiy va intellektual fazilatlar majmui tushuniladi. Ushbu sifatlar orasida mas'uliyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, kommunikativlik, moslashuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash alohida ahamiyatga ega.

Mazkur sifatlar tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki maqsadli pedagogik ta'sir natijasida rivojlanadi. Bu jarayonda motivatsiya asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik nazariyalarga ko'ra, motivatsiya shaxsni muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar tizimi bo'lib, u insonning ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir[1.19].

Talabalarning o'quv faoliyatida motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi ularning bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga, o'z ustida ishlashiga va kasbiy rivojlanishga intilishiga olib keladi. Aksincha, motivatsiyaning pastligi passivlik, befarqlik va o'quv natijalarining

pasayishiga sabab bo'ladi. Shu bois ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish va uni qo'llab-quvvatlash muhim vazifa hisoblanadi.

Motivatsiya talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirishga bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, u bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Qiziqish mavjud bo'lgan taqdirda talaba o'quv materialini chuqurroq o'zlashtiradi, mustaqil izlanadi va yangi bilimlarni egallashga intiladi. Bu esa uning intellektual salohiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, motivatsiya faol ishtirokni ta'minlaydi. Faol talaba dars jarayonida savollar beradi, o'z fikrini bildiradi, muhokamalarda qatnashadi. Bu jarayon kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'limda muloqot ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etayotganini hisobga olsak, motivatsiyaning ushbu jihati alohida e'tiborga loyiqdir.

Motivatsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, u o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi. Talaba o'z ustida ishlashga, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga intiladi. Bu esa uning kasbiy kompetensiyalarining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Zamonaviy mutaxassis uchun "hayot davomida ta'lim olish" tamoyiliga amal qilish aynan shu motivatsiya orqali yuzaga keladi[2.89].

Shuningdek, motivatsiya talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. O'z kuchiga ishongan talaba murakkab vazifalardan cho'chimaydi, muammolarni hal qilishda qat'iyat ko'rsatadi. Bu esa uning mas'uliyatlilik va mustaqillik kabi sifatlarini rivojlantiradi.

Talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirishda bir qator pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, ta'lim jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo'llash zarur. Har bir talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish orqali uning ichki motivatsiyasini oshirish mumkin.

Ikkinchidan, aniq va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash muhimdir. Maqsadning aniq bo'lishi talabaning o'z faoliyatini rejalashtirishiga yordam beradi va natijaga erishishga undaydi.

Uchinchidan, muvaffaqiyat muhitini yaratish zarur. Kichik yutuqlarni e'tirof etish va rag'batlantirish talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda uni yangi yutuqlarga ilhomlantiradi.

To'rtinchidan, ichki motivatsiyani rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Tashqi rag'batlantirish vositalari qisqa muddatli natija berishi mumkin, ammo ichki qiziqish va o'sishga intilish uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi.

Beshinchidan, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish muhimdir. Ochiq va ishonchli muloqot muhiti talabaning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, xatolardan qo'rqmasligiga va faol bo'lishiga yordam beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi ham talabalarning motivatsiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv platformalar, raqamli

resurslar, masofaviy ta'lim vositalari talabani qiziqishini oshiradi va o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi[5.36]. Ayniqsa, loyihaviy ta'lim, muammoli o'qitish va innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda motivatsiya hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lib, talabani o'quv faoliyatidagi faolligi, natijadorligi va kasbiy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, motivatsiyani samarali shakllantirish orqali talabalarda mas'uliyatlilik, mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, kommunikativlik va o'z-o'zini rivojlantirish kabi muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida motivatsion yondashuvni kuchaytirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori malakali, raqobatbardosh va ijodkor mutaxassislarini tayyorlash mumkin. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2020). Ta'lim to'g'risida. Adliya vazirligining "Lex.uz" milliy qonun hujjatlari bazasi.
2. Hamidov, X. V. (2011). Talim oluvchilarning o'quv motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
3. Qodirov, B. I. (2018). Tyutorlik faoliyatining metodologik asoslari. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
4. Maksimova, V. V. (2011). Teoriya i praktika tyutorstva v sovremennom obrazovanii. Moskva: Izdatelstvo Akademii estestvoznaniya.
5. Maslou, A. (1999). Motivatsiya i lichnost. Sankt-Peterburg: Evraziya.
6. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Toshkent: O'zbekiston.
7. Musurmonova, O. (2007). Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Fan.
8. Gulomov, S. S., & Ochilov, E. K. (2018). Raqamli iqtisodiyot sharoitida pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.